

Korxonalar va tashkilotlar

(2019 yil yanvar-fevral)
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yilning yanvar-fevral oylarida Viloyatda 1830 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1273 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3791 ta (23,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 19828 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2110	1954	100
	Sanoat	3167	3031	425
	Qurilish	2149	2037	144
	Savdo	4869	4601	792
	Tashish va saqlash	1282	1214	68
	Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	1399	1332	137
	Axborot va aloqa	225	212	6
	Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	521	511	19
	Boshqa turlari	5116	4936	139



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yilning 1 mart holatiga 20838 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 23,4 % savdo, 15,2 % sanoat, 10,1 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 10,3 % qurilish, 6,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 6,2 % tashish va saqlash, 2,5 % sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar , 1,1 % axborot va aloqa hamda 24,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (6605 ta), G'ijduvon (2273 ta), Romitan (1592 ta) va Buxoro (1556 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qorovulbozor (378 ta), Olot (674 ta) tumanlarda, hamda Kogon shahri (721 ta) korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.03.2017 yil

16286

01.03.2018 yil

16911

01.03.2019 yil

20838



Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **19828** tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3791 ta (23,6 %) ga o'sgan.


01.03.2018 y.
16037 ta

01.03.2019 y.
19828 ta

O'tgan yilga nisbatan
3791 taga oshgan


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 23,2 % savdo, 15,3 % sanoat, 10,3 % qurilish, 9,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 6,1 % tashish va saqlash, 1,1 % axborot va aloqa, 2,6 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 24,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari,)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (6435 ta), G'ijduvon (2101 ta), Romitan (1549 ta), Buxoro (1405 ta) va Jondor (1349 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Qorovulbozor (374 ta), Olot (602 ta) hamda Kogon sh. (722 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

) 01.03.2017 y. (

- 15283ta

) 01.03.2018 y. (

- 16037

) 01.03.2019 y. (


- 19828ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar. (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 yil yanvar-fevral oylarida 1830 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 3,3 % baravarga ko`pdir. Eng ko`p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Buxoro shahri (526 ta), G`ijduvon (254 ta), Romitan (147 ta) va Jondor (149 ta) tumanlari hissasiga to`gri keladi. Aksincha Qorovulbozor (32 ta), Kogon (71 ta) hamda Olot (72 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko`rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (792 ta), sanoat (425 ta), qurilish (144 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (137 ta), qishloq va o'rmon xo'jaligi (100 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (6 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (19 ta), hamda tashish va saqlash (68 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	01.03.2017 y.		01.03.2018 y.		01.03.2019 y.	
	Umumiy soni	ulushi, %	Umumiy soni	ulushi, %	Umumiy soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	519	100	557	100	1830	100
Savdo	79	15,2	98	17,6	792	43,3
Sanoat	130	25,1	95	17,1	425	23,2
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	140	27,0	112	20,1	100	5,5
Qurilish	51	9,8	71	12,7	144	7,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	28	5,4	41	7,4	137	7,5
Tashish va saqlash	28	5,4	14	2,5	68	3,7
Axborot va aloqa	8	1,5	8	1,4	6	0,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	15	2,9	22	4,0	19	1,0
Boshqa turlari	40	7,7	96	17,2	139	7,6

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda






TIJORAT KORXONALARI.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yil 1 mart holatiga 16622 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3275 ta, oilaviy korxonalar – 1164 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 11816 ta va boshqalar 367 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'ssatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 182 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 88 taga yoki 93,6 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston va Koreya Respublikalari hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarlarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 127 tasi qo'shma korxonalar, 55 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'gri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Shahar va tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar (95 ta yoki jamidagi ulushi 52,2 %), Peshku tumani (14 ta yoki 7,7 %) va Kogon tumani (12 ta yoki 6,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olot tumani (1 ta yoki 0,5 %), Qorovulbozor tumani (3 ta yoki 1,6 %), Shofirkon tumani (4 ta yoki 2,2 %), G'ijduvon tumani (5 ta yoki 2,7 %) va Qo'rako'l tumani (5 ta yoki 2,7 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalg etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 88 tani (48,4 %), savdoda 33 tani (18,2 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 16 tani (8,8 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 2 tani (1,1 %), sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 3 tani (1,6 %), qurilish 10 ta (5,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 17 tani (9,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 13 tani (7,1 %) tashkil qilgan. Ko'rinish turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa tashish va saqlashda hamda sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'gri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 28 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24 taga ko'paygan.

Bunda, Turkmaniston – 6 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 7 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 4 ta, Koreya Respublikalari ishtirokida – 2 ta va Qozoqiston Respublikasi - 1 tadan korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Shuningdek, 2019 yil yanvar oyi davomida Eron Islom Respublikasi rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimida ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (8 ta), sanoat (9 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (7 ta) , qurilish (3 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish(1 ta) sohalariga to'gri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish dinamikasi,birlikda


	2018 yil yanvar-fevral		2019 yil yanvar-fevral	
	Jami	Umumiyl soniga nisbatan %	Jami	Umumiyl soniga nisbatan %
Sanoat	1	25,0	9	32,1
Savdo	2	50,0	8	28,6
Qurilish	0	0	3	10,7
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1	25,0	7	25,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	0	0	0	0
Axborot va aloqa	0	0	0	0
Tashish va saqlash	0	0	0	0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	0	0	1	3,6
Boshqa turlari	0	0	0	0



Kichik korxona va mikrofirmalar soni.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yil 1 mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 16492 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 mart holatiga qaraganda 26,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 5578 tasi (33,8 %) Buxoro shahri, 1765 tasi (10,7 %) G'ijduvon, 1320 tasi (8,0 %) Romitan hamda 1187 tasi (7,2 %) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16492 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4568 tasi (27,7 %) – savdo, 2994 tasi (18,2 %) - sanoat, 2015 tasi (12,2 %) - qurilish, 1910 tasi (11,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1324 tasi (8,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1204 tasi (7,3 %) - tashish va saqlash, 433 tasi (2,6 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 198 tasi (1,2 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1846 mingtasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'riniib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019 yil yanvar-fevral oylarida 1782 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 % baravarga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahri (506 ta), G'ijduvon (252 ta), Romitan (146 ta) va Jondor tumani (147 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorovulbozor (32 ta), Kogon (69 ta) hamda Olot (70 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (792 ta), sanoatda (424 ta), qurilishda (144 ta) va yashash va ovqatlanish xizmatlarda (137 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (6 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (18 ta), hamda tashish va saqlashda (68 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni


 Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 mart holatiga 1218 tani tashkil etib, ulardan 1164 tasi yoki 95,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 61,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,9 % yoki 348 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 29,7 % yoki 345 tasi sanoat, 18,8 % yoki 219 tasi savdo, 10,7 % yoki 125 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,3 % yoki 27 tasi sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 12 tasi qurilish, 0,9 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 7 tasi axborot va aloqa hamda 6,1 % yoki 71 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda sanoat eng kami esa axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Buxoro viloyat statistika boshqarmasi
statistik registrlarni yuritish bo'limi**
Tel: 71-230-83-20 (21)